

## QADIMGI XORAZM O'RTA OSIYONING MISRIDIR

*Nizomiddinov Azamatjon A'ljon o'g'li*

*Andijon viloyati Andijon tumanidagi*

*13-umumiy o'rta ta'lim maktabida tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** "Qadimgi Xorazm O'rta Osiyoning Misridir"- Insoniyat sivilizatsiyasining ko'hna makonlarini o'rgananuvchi arxeologlar ulkan yutuqlarga ko'hna Xorazm zaminidagi makonlar, qabriston, qal'a va qo'rqlarni izlab topish va o'rganish jarayonida erishdilar. Xorazm tarixi, madaniyati va san'atini betakrorligiga yana bir marta amin bo'ldilar" Xorazm O'rta Osiyo hududidagi eng qadimiy davlatlardan biri bo'lib, aholisi o'troq va ko'chmanchi qabilalardan iborat bo'lgan. Uning hududi Amudaryoning quyi qismidan janubga tomon Murg'ob va Tajan daryolarining yuqori oqimlarigacha cho'zilgan.

**Kalit so'zlar:** "Qadimgi Xorazm", davlatchilik, sivilizatsiya, ekspeditsiya, shaharsozlik va me'morchilik, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.

**Аннотация:** «Древний Хорезм – Египет Средней Азии» – Археологи, изучающие древние места человеческой цивилизации, достигли больших успехов в процессе поиска и изучения мест, кладбищ, крепостей и крепостей на земле древнего Хорезма. Они еще раз убедились в уникальности истории, культуры и искусства Хорезма. Хорезм – одно из древнейших государств Средней Азии, его население состояло из оседлых и кочевых племен. Его территория от нижней части Амудары до юга. простирается до верховий рек Мургаб и Таджан.

**Ключевые слова:** «Древний Хорезм», государственность, цивилизация, экспедиция, градостроительство и архитектура, социально-экономические отношения.

**Annotation:** "Ancient Khorezm is the Egypt of Central Asia" - Archaeologists who study the ancient places of human civilization achieved great achievements in the process of finding and studying places, cemeteries, fortresses and fortresses in the land of ancient Khorezm. They were once again convinced of the uniqueness of the history, culture and art of Khorezm" Khorezm is one of the oldest states in Central Asia, its population consisted of settled and nomadic tribes. Its territory is from the lower part of Amudarya. to the south it extends to the upper reaches of the Murghab and Tajan rivers.

**Key words:** "Ancient Khorezm", statehood, civilization, expedition, urban planning and architecture, socio-economic relations.

Xorazm – bashariyat madaniyatining eng ko’hna, eng rivojlangan, eng sirli markazlaridan biridir. Bugungi kunda tarixni o’rganish, yosh avlodni tarixga hurmat, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzARB vazifa hisoblanmoqda. Xorazm qadimdan dastlabki davlatchilik va sivilizatsiya o’choqlaridan biridir. Qadimgi Xorazm davlati miloddan avvalgi VII asrda Amudaryo o’rta oqimi qismidan tortib Orolga yaqin bo’lgan yerlarda vujudga kelgan, degan xulosaning to‘g’riliqi tasdiqlandi. Bu davlat Margiyonadagi Marv atrofida shakllanmagan, chunki manbalarga ko’ra, Margiyona qadimgi Baqtriya davlatining yirik viloyati bo’lgan. Baqtriya va Xorazm davlatining hududiy chegaralari o’rta Amudaryo oqimidagi yerlar orqali o’tgan. Shu yerlarda bir-biriga ro‘para holatda ikkita qadimgi istehkom - Gadoytepa va Qushqal’a qurilgan. Xorazm- liklar egalik qilgan yerlar Sosg‘diyona, Margiyona va Baqtriyaga tegishli oikalarga borib taqalgan Balki shuning uchun ham Gekaney xorazinliklar viloyatini parfiylardan sharqiy tomonda joyfeshtirgan Gerodot esa parfiyaliklar va xorazmliklarini yerlari chegaradosh boigan deb ko‘rsatgan. Xorazm ilk marta Doro I ning Bexistun kitobalarida va Avestoda eslatiladi. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto” O’rta Osiyo, Eron, Afg‘oniston va Xorazmning kadimgi tarixni o’rganishda qimmatli manba hisoblanadi<sup>8</sup>. Gekatey Miletskiyda ham Xorazm haqida ma’lumot bo‘lib, u Xorasmiyani parfiyaliklardan sharqda joylashgan Xorasmiya viloyatidagi yagona shahar sifatida tilga oladi.

1939-yilda Xorazm ekspeditsiyasi arxealogik qidirish ishlarini uch yo‘nalishda olib bordi. Natijada 16 ta yodgorlik arxeologik jihatdan tekshirildi<sup>15</sup>. Bu arxeologik ekspeditsiyalarda S.P.Tolstov hissasi nihoyatda katta. U inson bu o‘lkani sevar, uning tarixiy qimmatini yaxshi tushunar edi. "Qadimgi Xorazm" degan monumental asarida shunday deb yozadi: "Bu ekspeditsiya muallifning kelajakda qiladigan ishlarining yo‘nalishini belgilab berdi. Xilma-xil tasodifiy vazifalar uning e‘tiborini har qancha chalg‘itmasin, bari bir o‘ziga xos O’rta Osiyo "Misri"ning tarixi, etnografiyasi va arxeologiyasi bilan qiziqdi<sup>16</sup>. Olim 1937-1940-yillarda arxeologik izlanishlar olib bordi va "Xorazm sivilizatsiyasi" degan tushunchani arxeoligiya faniga olib kirdi. Arxeologik tadqiqotlar uchun aviamarshrutlarning uzunligi 9000 km ga teng edi, 250 dan ortiq qadimiy shahar va qishloqlar ochildi va o’rganildi. S.P.Tolstov o‘z tadqiqotlari bilan o‘zbek xalqining asosini sharqdan ko’chib kelgan ko‘chmanchi qabilalar emas, balki shu ko’hna maskanda ming yillar davomida o’troq hayot kechirib kelgan erli xalq – xorazmiylar, sug‘diylar, toxarlar, baqtriyaliklar hamda Amu va Sirdaryo bo‘ylarida azaldan yashab chorvachilik bilan shug‘ullanib kelgan massaget-saklar tashkil etganligini isbot qildi.

Olimlarning ta’kidlashicha, Avestoda tilga olingan Aryoshayona yoki Aryanam Vaychax shu manbada eslatilgan Kavi Vishtaspning podsholigi bo’lib, milloddan avvalgi IX-VIII asrlarda Drang’iyona, Satagadiya, Ariya, Marg’yona va Amudaryoning o’rta oqimidagi viloyatlarni birlashtirgan. G’arb tadqoqtchilari

V.Xenning va I.Gershevichlar Avestodagi Kavi Vishtapsning davlati Marv va Xirot atrofida joylashgan “Katta Xorazm” deb hisoblaydilar. “Katta Xorazm” muammosi Gerodot ma'lumotlaridan boshlangan. U “Tarix” asarining uchinchi kitobida quyidagicha mahlumot beradi: “Osiyoda bir vodiy bor. Uning barcha tomoni tog’ bilan o’ralgan, tog’ni esa beshta dara kesib turadi. Bir vaqtlar bu vodiy xorasmiylarga tegishli bo’lib, xorasmiylar, parfiyaliklar, saranglar va tamaneylarga chegaradosh yerlarda joylashgan. Vodiyni o’rab turgan tog’dan Akes nomli yirik daryo boshlanadi”. Gerodotdan sal oldinroq yashab o’tgan Gekatey parfiyaliklarning sharqiylarning tomonida joylashgan “Xorasmiya”ni, “bir qismi tekisliklarda, bir qismi tog’larda yashovchi xorazmliklarni” eslatib o’tadi. Tadqiqotchi V.A.Livo’its ham bu “Katta Xorazm”ni Marv va Hirotning to’rtta rayoniga joylashtiradi. Agar “Katta Xorazm” davlati Marv va Hirot atroflarida joylashgan taxmin rost bo’lsa, A.S.Sagdullaevning fikricha, bu davlat forslar podshosi Kir II tamonidan bo’ysundirilganidan so’ng xorasmiylar Quyi Amudaryoning Xorazm hududlariga ko’chib borganlar deb faraz qilinadi. Ushbu nazariyaga ko’ra, miloddan avvalgi VI asr qadimgi forslar xorasmiylarni janubdan quyi Amudaryo yerlariga siqib chiqargan.

Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar jarayonida aniqlangan san’at namunalari – Beruniy tumanidagi Oqchaxon qal’a, Hazorasp tumanidagi Xumbuztepa va Toshqal'a yodgorliklaridan topilgan. Oqchaxon qal’ani o’rganishda O’zR FA QQB Ijtimoiy-gumanitar fanlar instituti (Tarix, arxeologiya va etnologiya instiuti) olimlari V.Yagodin, hozirda G’.Xo’janiyozov rahbarligida Avstraliyaning Sidney universiteti olimlari A.Betss rahbarligida 25 yildan ziyod vaqt davomida tadqiqotlar olib bormoqdalar. Bu tadqiqotlar natijasida Oqchaxon qal'a Xorazmning qadimiy poytaxti ekanligi haqidagi mulohazalar o’rtaga tashlandi. Yirik hajmli devoriy suratlarning topilishi ham bu fikrni asoslaydi.

Xorazm vohasi ahолиси temir ashyosidan tayyorlangan xilma –xil mexnat qurollarini doimiy ravishda xo’jalikda keng ishlatalishi jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy etnomadaniy munosabatlarni tez suratlar bilan rivojlantirdi. Quyisoyliklar asosan chorvachilik,qisman dehqonchilik bilan shug’ullanganlar (katta xajmdagi xumlar, don yanchgich qoldig’i topilgan). Dehqonchilik asosan nam va kayr erlarga qilingan,chunki suvorish izlari bu xududda topilmagan. Miloddan avvalgi IX-VI asr o’rtalarida madaniy –xo’jalik massivlar va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning vujudga kelishida vaziyat keskin o’zgarganligi kuzatiladi.O’sha kezlarda Orolbo’yi Janub, Oqchadaryo xavzasining shimoliy va markaziy qismida ijtimoiy-iqtisodiy omillar barham topganligi sababli madaniy-xo’jalik massivlar faoliyati ham to’xtaydi. Faqat Janubiy Oqchadaryoga ma'lum miqdorda suv kelib turganligi bois, Amirobod sug’orish kanali sohilida madaniy-xo’jalik massivi tashkil topgan va shu asosda ijtimoiy-iqtisodiy omillar ham mavjud bo’lgan. Bu xududda bitta madaniy xo’jalik markazi faoliyat olib borgan xolos. Yana bir madaniy -xo’jalik markaz

Sariqamishbo'yi havzasi janubi-sharqiy qismida vujudga kelgan. Shu tariqa miloddan avvalgi IX-VI asr o'rtalarigacha Janubiy Oqchadaryoda 1 ta, Sariqamish xavzasida 1 ta madaniy-xo'jalik markazlar mavjud bo'lgan

Xulosa: So'nggi yillardagi ilmiy izlanishlar va arxeologik tadqiqotlar Xorazm kurraizaminimizning eng qadimiylari, eng Ko'hna o'lklaridan biri bo'lganligini, bu o'lkada juda qadimdanoq o'troqlashgan qabilalar yashagani, ularning ovchilik, chorvachilik, bog'dorchilik va dehkonchilik madaniyati g'oyat kuchli rivojlanganligini isbot etdilar. Bunda fors, lotin, arman, xitoy, yunon, rim va boshqa qadimiylari xalqlarning ilmiy manbalari ham to'la javob bermoqda. Shuningdek, arxeologik tadqiqotlar ham Qadimgi Xorazmning san'ati va madaniyati, xalqning axloq-odobi, ma'naviyati va turmush tarzi ancha yuksak darajada bo'lganligini ko'rsatib bermoqda. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mil.avv. V – IV asrlarda Xorazm va unga qo'shni bo'lgan hududlarni urbanizatsiya jarayonlari qamrab olgan edi. Natijada bu hududlarda tarixiy madaniy dehqonchilik vohalari paydo bo'ladi va ular ilk davlatchilikning asosiga aylanadi. Mil.avv. VI asrdan boshlab esa hozirgi Xorazm vohasida davlatchilik shakllanib u qadimgi Sharq sivilizatsiyasi markazlaridan birga aylanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Толстов С.П. Древней Хорезм. М. 1948г. ҚадимгиХоразм харитаси.
2. Воробьева М.Г. Проблема «Большого Хорезма и Археология //Этнография и археология Средней Азии. М. «Наука», 1979г
3. G'ayratdin Xo'janiyazov. Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari. Mil.avv VI asrdan milodiy IV asrgacha. Toshkent "O'zbekiston" 2007-yil.
4. Asqarov A. Qadimgi Xorazm tarixiga oid bahzi bir masalalar // O'zbekiston etnologiyasi: yangicha qarashlar va yondashuvlar. – Toshkent, 2004.